

“ONA” LEKSIK-SEMANTIK MAYDONINI VOQELANTIRUVCHI MORFOLOGIK VA LEKSIK VOSITALAR QIYOSIY TAHLILI

Xurshidaxon Azamjonova,

Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada “ona” leksik-semantik maydonini yuzaga keltiruvchi til birliklarini misollar orqali qiyosiy tahlil qilishga harakat qildik. Tekstemalar, frazemalar, morfemalarda birma-bir ko'rib chiqdik.

Kalit so'zlar. Morfem, leksema, tekstema, fraema, til birliklari, frazeologik birliklar.

Ko'plab tilshunos olimlar, jumladan, V.V. Vinogradov, A.V. Bondarko, I.A. Melchuk kabi olimlar leksik-semantik maydonni tahlil qilishga katta hissa qo'shganlar. Ularning tadqiqotlari so'zlarning semantik munosabatlarini, sinonimiya, antonimiya, giperoniya va giponimiya kabi tushunchalarni o'rganishga qaratilgan. Ularning fikrlariga ko'ra, leksik-semantik maydonlarning tahlili tilning ichki tuzilishini va uning madaniy-tarixiy rivojlanishini tushunishga yordam beradi.

Fonema (yoki morfofonema), morfema, leksema, sintaksema (frazema, sentencema), frazeyema (ya'ni frazeologik birliklar) va tekstema (yoki diskursema)lar til vositalari sifatida etik birliklar bo'lishi bilan birga, inson tafakkurining konseptual sohasida shakllangan mazmunlarni, ya'ni konseptlarni til orqali ifodalovchi verbalizatorlar rolini ham bajaradi.

Tekstemalar (diskursemalar), masalan,

Ne asrlar asirasi, zulmat qurboni,

Tarixlarning gardanida yoqut, marjoni.

Insonlarning sut emizgan onasi, joni,

Odamlarning teng yarimi, yuragi, qoni

Yuragimning sadporasi bo'lgan san'atim (G'.G'ulom, San'atim).

Ushbu misoldagi san'at so'zi butun matnga nisbatan qiyosiy tarzda qo'llanilgan.

E'tiborga loyiq jihat shundaki, ayrim konseptlar muayyan til birliklari orqali ifodalansa, boshqalari yuqorida sanab o'tilgan barcha invariant birliklar vositasida

voqelantirilishi mumkin. Birinchi holatda mikrokonseptlar, ikkinchisida esa murakkab va ko'p qatlamli mazmun tuzilmalariga ega bo'lgan makrokonseptlar bilan ish yuritiladi. Ayniqsa, inson hayoti, fiziologik va psixologik holatlari bilan bevosita bog'liq konseptual mazmunlar odatda makrokonseptlar doirasida tahlil qilinadi.

Maydon nazariyasi bo'yicha qilingan tahlillar orasida professor G'.M.Hoshimovning tasnifi alohida e'tiborga molik. Olimning fikriga ko'ra, "Obyektiv dunyoni in'ikos etish u haqidagi hislar, sezgilar, tasavvurlar, fikrlar, g'oyalar, tushunchalar muhim ikki ajralmas mental jarayon, ya'ni konseptualizatsiya va kategorizatsiya jarayonlari orqali tafakkurda yaxlit bir kognitiv yoki konseptual, ya'ni idrokiy semantika(lar) yoki "konsept(lar)"ga mujassamlantirilib, bevosita til unsurlari, ya'ni verbal vositalar orqali voqelantiriladi"¹.

Biz ham professor G'.M.Hoshimovning fikriga qo'shilgan holda "ona" konseptini, ya'ni "ona konseptual semantikasi"ni shunday makrokonseptlar qatoriga kiritishimiz mumkin.

Inson tomonidan dunyo bilan muloqot qilish jarayonida to'plangan tajriba qiyos uchun turli asoslarni beradi. Bundan tashqari qiyos omonimik ko'rinishi jihatdan bir xil bo'lishi mumkin, ammo u bir nechta kognitiv maqsadli ma'nolarda qo'llaniladi. Dunyo haqidagi umumiy tushunchalar va g'oyalar barcha madaniyatlar uchun bir xil, shuning uchun turli tillarda ularning qiyoslanishi bir-biri bilan o'xshash holatda qo'llanilishi mumkin. Misol uchun ona so'zi *ona vatan, ona tuproq, ona tili, ona tabiat, onadek mexribon, onadek aziz, onadek mo'tabar, onadek mushtipar* kabi birikmalardagi onaning mehribonligi-yu, azizligi va mo'tabarligiga qiyoslanadigan bo'lsa, xuddi shu o'xshatishlar ingliz va rus tillarida ham ona timsoli orqali ifodalanadi. Masalan, *motherland, mother tongue, mother nature, as kind as mother* va hokazolar.

¹ Хошимов Ғ.М. "Инглиз ва ўзбек тилларида "таом" концепти лексик-грамматик майдони вербализаторларнинг структурал семантик турлари тизими" "Umumiy, antroposentrik, raqamli tilshunoslik, adabiyotshunoslik va til o'qitish metodikasining dolzarb muammolari" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari 26-27 may, 2023, Andijon 2023;

Keng ma'noda esa turli toifadagi tadqiq obyektlarining falsafiy va mantiqiy mohiyatini aniqlash, miqdoriy va sifatiy belgilarini umumlashtirish asosida muayyan xulosa chiqarish uchun qiyos tushunchasini qo'llaydi.

– *Yetmish yulduz yog'ilib yarim oycha bo'lolmas, yetti yanga bir bo'lib bitta ona bo'lolmas.* (M.Yusuf, *Besh o'g'il*)

Kuzatuvlar natijasida aniqlandiki, har bir muayyan tilda, jumladan, o'zbek tilida ham, “ona konseptual semantikasi” (yoki “konsepti”, yoki leksik-semantik maydoni) doirasida predmetlar (obyektlar, shaxslar, hayvonlar, hodisalar, voqealar, holatlar va hokazo) tavsifini ifodalovchi o'zgarmas verbal vositalar majmuasi mavjud bo'lib, ular yaxlit tizimni tashkil etadi. Shu ma'noda o'zbek tilida ham, “ona konseptual semantikasi” quyidagi o'ziga xos verbal vositalar – verbalizatorlarning o'zgarmas turlari orqali ivoqelanishi aniqlandi:

1) fonomorfemalar ham unli ham undosh turlari, ular ikkilantirilib, yoki undan ortiq tarkib asosida cho'zib, uzaytirib talaffuz qilinadi va shu yo'sinda ifodalanayotgan ma'no ma'lum darajada boshqa biriga nisbatan farqliroq bo'lishiga erishiladi, masalan, o'zbek tilida: 1) [a:], [ya:] *onaaaa, ayaaaa* kabi so'zlarda, masalan, *Ko'zlari ko'rmaydimi. Oyog'i yurmaydimi. Meni tanimaydimi. Onaaaaam onaaaaam u onaaaaam.* [Yu.Usmonova, *Onam*]; 2) [i:] *oyiiii* kabi so'zlarda, [o:] *oyijooooon, onajooooon, ayajooooon* va h.k., masalan, – *U hammasini osmonga qadar ko'tarib eeeeeng baland nuqtadan eeeeeng chuqur jarlikka tashladiyu...ketti...!*²

2) morfemalar (“-jon”, “-xon”, “-m” qo'shimchalari morfemik darajada *mehr, hurmat, egalik* semantikalarini ifodalaydi):

-m (egalikni, yaqinlik va shaxsiy munosabatni bildiradi): *onam, ayam, enam, oyim*; masalan, *Yana bahor keldi. Yana dalalar, yaylovlar, sen qadam qo'ygan yo'laklari so'qmoqlar uzra chappar urib nozlandi. Sen ham bahor kabi emasmiding, onam?* [Isajon Sulton, *Onaizorim*, 54-bet]

3) leksemalar:

² <https://m.ok.ru/kalbkoshon/topic/65998651064563>.

- Ona, masalan, *Shunday deb boshimni silardi. Oymoma esa bu sehrli qo'shiqni yana bir eshitgisi kelgandek, muallaq to'xtab qolar, yulduzlar oychan ko'zlarini tikib muloyim boqib turishar, onam ertak aytar edi.* [O'.Hoshimov, Dunyoning ishlari, 7-bet]

4) frazemalar (so'z birikmasi): *Ona suti og'zidan ketmaslik;* Bu yerda onaning tarbiyasi, halolligi, pokligi hali bor; inson hali buzg'unchilik yo'lga o'tmagan ma'nosi anglashiladi, masalan, *U hali yomon yo'lga kirmaydi, ona suti og'zidan ketmagan.* [suhbatdan]

Ona ko'ngli – jannat, ona duosi – qanot; bunda biz onaning roziligi, duosi inson uchun eng ulug' ne'mat ekanligini his qilamiz, ya'ni muqaddaslik, e'tiqod, ruhiy kuch, baraka kabi semalar, masalan, *Bolam, ona duosi qanot bo'ladi, yodingda bo'lsin.* [ona va bola suhbatidan]

O'zbek tilida ona timsoli ma'naviy-madaniy yuksaklik, milliy identitet, va axloqiy mezon sifatida frazeologik va badiiy matnlar orqali idealizatsiya qilinadi. Ingliz tilida esa ona obrazining psixologik murakkabligi, funksional roli va individual tajriba asosida shakllanishi kuzatiladi. Shu sababli tarjima jarayonida frazeologik birliklar va tekstologik strukturalarni adekvat tarzda uzatish uchun kontekstual moslashtirish, kompensator yondashuvlar va madaniy izohlilik zarur bo'ladi. Bu esa tarjimonlardan nafaqat til bilimi, balki madaniyatlararo tafakkur va estetik sezgirlikni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хошимов F.M. “Инглиз ва ўзбек тилларида “таом” концепти лексик-грамматик майдони вербализаторларнинг структурал семантик турлари тизими” “Umumiy, antroposentrik, raqamli tilshunoslik, adabiyotshunoslik va til o'qitish metodikasining dolzarb muammolari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari 26-27 may, 2023, Andijon 2023.
2. <https://m.ok.ru/kalbkoshon/topic/65998651064563>.
3. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro: Buxoro universiteti, 2000.